

Xivada “Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari chorrahasida” Xalqaro forumi

Kecha 15-sentyabr kuni Xiva shahridagi hashamatli “Nurillaboy” majmuasida O’zbekistonda YuNESKO bilan hamkorlikda madaniy meros masalalari bo'yicha Xalqaro maslahat qo'mitasi faoliyatini rasmiy boshlanishi marosimi bo'lib o'tdi.



Rasmiy marosim O’zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rribbosari - turizm va sport vaziri A.Abduhakimovning nutqi bilan boshlandi.

O’zbekiston jahon merosi obyektlarini saqlash va tiklash bo'yicha xalqaro maslahat qo'mitasining birinchi yig'ilishining aynan Xiva shahrida o'tkazilganligi biz ushbu soha mutaxassislari uchun ayni muddao bo'ldi.

Yuqori darajadagi marosimda madaniy meros masalalari bo'yicha Xalqaro maslahat qo'mitasini tashkil qilish faoliyati haqida va qo'mita maqsadi va roli to'g'risida Umumjahon merosi markazi tanishtiruvni bo'lib o'tdi. YuNESKO Umumjahon merosi obyektlari joylashgan O’zbekiston shaharlari hokimlarining chiqishlari va O’zbekistonning Umumjahon merosi ob'ektlari to'g'risida qisqa taqdimotlar bo'lib o'tdi.

YuNESKO Umumjahon merosi qo'mitasi qarorlarini ijro qilish to'g'risida YuNESKO Umumjahon merosi markazi direktori d-r M.Ryossler nutq so'zлади va ushbu qo'mita (13 nafar) Ekspertlarning qisqa sharhlari va

muhokamalari tinglandi. Bunda Xalqaro maslahat qo'mitasi doirasida hamkorlik qilish imkoniyatlari, O'zbekistonda Umumjahon merosi obyektlarini saqlash va qayta tiklash nuqtai-nazaridan muammo va imkoniyatlar hamda kelgusida Xalqaro maslahat qo'mitasi asosiy tadbirlari va amaliy natijalarini targ'ib qilib borish va hamkorlikdagi loyihalarni amalga oshirishga kelishuvlar qilindi.



Eng asosiysi, Xorazm Ma'mun akademiyasi laboratoriya mudirasi Gavxarjon Durdiyeva nomzodini ham dunyo miqyosidagi nufuzli tadqiqotchilar qatorida "O'zbekistonda YuNESKO bilan hamkorlikda madaniy meros masalalari bo'yicha Xalqaro maslahat qo'mitasi"ga ekspert sifatida ko'rsatilganligi quvonchlidir. Bu esa o'z navbatida olimaning me'moriy yodgorliklarni saqlash, ta'mirlash va foydalanish samaradorligini oshirishga doir ilmiy faoliyatini xalqaro miqyosda kengaytirishiga imkoniyat yaratmoqda. Kelgusida, albatta, YuNESKO bilan hamkorlikda madaniy meros masalalari bo'yicha Xalqaro maslahat qo'mitasi faoliyati barcha mamlakatlar qatorida O'zbekistonda ham nazariy va amaliy ishlar bilan mavjud muammolarni hal qilishda o'zining ijobiy natijasini beradi.